

UDK: 372.3:373.2:811

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI
TARBIYALANUVCHILARINING CHET TILI KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Nuriddinova Maxliyo Nuriddin qizi¹

¹ *Ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lism) bitiruvchisi*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.07.2025

Revised: 02.07.2025

Accepted: 03.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

*maktabgacha ta'lism,
chet tili, ko'nikma,
pedagogik sharoit, til
muhiti, o'yinli metodika,
metodik ta'minot,
immersion,
lingvodidaktika, til
rivoji.*

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyalanuvchilarining chet tili ko'nikmalarini rivojlantrishda mavjud pedagogik shart-sharoitlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib, til o'rGANISH jarayonining yoshga oid xususiyatlari, metodik yondashuvlar, pedagog malakasi, o'quv-metodik ta'minot va ijtimoiy muhit omillari chuqur tahlil etilgan. Xalqaro va milliy tajribalar solishtirilib, O'zbekiston sharoitida maktabgacha yoshdag'i bolalarda chet tili ko'nikmalarini shakllantirishda samarali yondashuvlar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

KIRISH. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lism tizimining barcha bo'g'inlarida, xusan, maktabgacha ta'lism sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – maktabgacha ta'limgandan boshlanadi" tamoyiliga asoslanib, ushbu tizimni modernizatsiya qilish, bolalarning intellektual, estetik va til ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilangan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdag'i bolalarda chet tilini o'rgatish bo'yicha pedagogik sharoitlarni yaratish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

Chet tillarini erta yoshdan boshlab o'rgatishning zarurati bir qator ilmiy-tadqiqotlarda isbotlangan bo'lib, psixolingvistlar fikricha, 3–7 yosh oralig'i til o'zlashtirishning eng qulay davridir. Bu yosh davridagi bolalar fonetik ohang, talaffuz, nutq modeli va leksik birlklarni tabiiy muhitda tez va oson o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bois, mакtabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tili o'qitilishi tizimli, metodik asoslangan va pedagogik jihatdan qulay shart-sharoitlar ostida amalga oshirilishi lozim. Quyidagi 1-jadvalda 2022–2024-yillarda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tili o'rgatilayotgan guruqlar soni va ularga jalb qilingan pedagoglar statistikasi keltirilgan:

1-jadval. O'zbekiston MTTlarida chet tili o'rgatilishiga oid statistik ma'lumotlar (2022–2024 yillar)

Yil	Chet tili o'rgatilayotgan MTTlar soni	Chet tili o'qituvchilar soni	O'quvchilar qamrovi (%)
2022	4 158	3 746	26,3 %
2023	5 912	5 081	35,9 %
2024 (yanvar holatiga)	7 485	6 547	44,6 %

Ushbu raqamlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'rgatishga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Biroq, mayjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, pedagogik shart-sharoitlarning sifati, metodik ta'minot, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, kadrlar tayyorligi hamda lingvistik muhitni yaratish masalalari hali-hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida chet tili ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlarning turlari, ularning samaradorligi va amaliy tatbiqi ilmiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida joriy etilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda chet tili ko'nikmalarini shakllantirish masalasi nafaqat lingvistik, balki psixopedagogik, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Turli adabiyotlarda bu jarayonning muvaffaqiyati ko'plab omillarga: bolaning individual rivojlanish bosqichi, til muhitining mavjudligi, pedagogning metodik saviyasi va dars tashkiloti shakliga bog'liq ekani ta'kidlanadi. Ilmiy adabiyotlarda maktabgacha yosh davri — inson hayotidagi "til

sezuvchanlik” (sensitive period) bosqichi sifatida baholanadi. J. Piaget va L.S. Vygotskiy ta’limotlariga ko‘ra, bola bu yoshda tashqi stimullarni chuqur idrok qiladi, ya’ni chet tilidagi nutq namunalarini fonetik, semantik va grammatika jihatdan ong ostida kodlaydi. Bu jarayon “til refleksi” shakllanishi orqali sodir bo‘ladi. Vygotskiy fikricha, til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Chet tillarini erta o‘rgatish borasida olib borilgan zamonaviy xalqaro tadqiqotlar ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Jumladan, UNESCO (2021) hisobotida ta’kidlanishicha, 3-6 yosh oralig‘idagi bolalarning til o‘zlashtirish qobiliyati kattalarga nisbatan ikki barobar yuqori bo‘lib, 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtacha 1500–2000 gacha yangi so‘zlarni o‘zlashtirishga qodir. Quyidagi 2-jadvalda turli mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimida chet tili o‘rgatishga oid metodik yondashuvlar solishtirilgan:

2-jadval. Turli davlatlarda chet tilini erta yoshda o‘rgatish tajribalari.

Mamlakat	Yondashuv turi	Mashg‘ulotlar hajmi (soat/hafta)	Maxsus usullar
Finlyandiya	Integratsiyalashgan	2-3 soat	O‘yinli darslar, tabiiy muhit
Yaponiya	Multimodal yondashuv	4-5 soat	Robotlar bilan interaktiv darslar
Germaniya	Immersion (cho‘milish)	6 soat	Mahalliy va chet tili aralash muhiti
O‘zbekiston	Faol-uslubiy yondashuv	2-3 soat	O‘yinli va teatr elementli mashg‘ulotlar

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro amaliyotda chet tilini o‘rgatish jarayoniga o‘yin, teatr, qo‘sish va harakatli mashg‘ulotlar orqali kirish usullari keng joriy etilgan. Germaniyada cho‘milish (immersion) metodi orqali bola bir vaqtning o‘zida ikkita til muhiti ichida faoliyat olib boradi. Yaponiya esa sun’iy intellekt va robotlashtirilgan vositalar yordamida interaktivlikni kuchaytirgan. O‘zbekiston tajribasida esa ko‘proq o‘qituvchining individual yondashuvi va o‘yinli metodlar asosiy vosita bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda maktabgacha ta’lim muassasalarining 44,6 foizida chet tili mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilgan (2024 yil yanvar holatiga), bu raqam oxirgi uch yilda 1,7 barobarga oshganini bildiradi (qarang: 1-jadval). Shuningdek, O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham bu yo‘nalishda yetarli ilmiy asoslarni beradi. Masalan:

A.X. Jo‘raev (2021) tomonidan o‘tkazilgan tajribada 60 nafar pedagog va 300 nafar tarbiyalanuvchi ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, malakali o‘qituvchilar bilan

ishlovchi guruhlarda 4 oy ichida bolalarning faol leksik zaxirasi o‘rtacha 35% ga oshgan. M.M. Soliyeva (2022) ingliz tilidagi qo‘shiqlar va teatr sahnalashtirish asosida dars o‘tgan 5 ta MTTda eksperiment o‘tkazgan. Uning tadqiqoti natijalariga ko‘ra, bolalarda chet tili nutqiga bo‘lgan ishtiyoydarajasi 2,3 barobarga oshgan.

Quyidagi 3-jadvalda Soliyeva tajribasi asosida o‘quvchilar so‘z boyligi ortishini ko‘rsatuvchi natijalar keltirilgan:

3-jadval. Chet tilini o‘rgatish tajribasidan so‘ng bolalarning leksik rivojlanish ko‘rsatkichlari (n=100)

Ko‘rsatkich	Eksperimentgacha (so‘z)	Eksperimentdan so‘ng (so‘z)	O‘sish darajasi (%)
Faol ishlatiladigan so‘zlar soni	47	68	44.7 %
Passiv tanish so‘zlar soni	89	127	42.7 %

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, metodik yondashuvlar, pedagog tayyorgarligi va shart-sharoitlar ta’minoti chet tili ko‘nikmalarining shakllanishida bevosita ta’sir etuvchi omillardir. Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida chet tili o‘qitishni takomillashtirishda bu omillar chuqur tahlil qilinishi lozim.

Tadqiqot munozarasi. Chet tili ko‘nikmalarini maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirish masalasi ta’lim sohasidagi ko‘p omilli, kompleks yondashuvni talab qiladigan muhim pedagogik yo‘nalishlardan biridir. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonning samaradorligi, avvalo, pedagogik shart-sharoitlar, o‘qituvchining malakasi, til muhiti, metodik yondashuv va oilaviy qo‘llab-quvvatlash kabi bir qator ichki va tashqi omillarga bog‘liq. Birinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalarida chet tili o‘rgatish jarayonida o‘qituvchining lingvodidaktik tayyorgarligi eng asosiy omillardan biri sifatida ajralib turadi. A.X. Jo‘raev (2021) tomonidan o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlarda aniqlanishicha, malakali o‘qituvchilar bilan ishlovchi guruhlarda bolalarning faol so‘z boyligi, talaffuz aniqligi va tilga qiziqish darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu natijalar xalqaro tajriba – Germaniyada qo‘llanilayotgan immersion (cho‘milish) metodining samaradorligini tasdiqlaydi, chunki u yerda o‘qituvchilar ikki tilda erkin faoliyat yuritish salohiyatiga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin orqali ta’lim eng samarali yondashuv hisoblanadi. Bu fikr Soliyeva M.M. (2022) tomonidan olib borilgan eksperimentda isbotlangan bo‘lib, chet tili qo‘shiqlari, teatr sahnalashtirish va vizual

vositalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ishtirok etgan bolalar orasida tilga bo‘lgan qiziqish 2,3 barobarga oshgan. Bu natijalar UNESCO tomonidan e’lon qilingan 2021-yilgi hisobot bilan uyg‘unlikda bo‘lib, unda til o‘rganish jarayonida hissiy va ijtimoiy muhitning ijobiy ta’siri alohida ta’kidlangan.

Uchinchidan, o‘quv-metodik ta’minot yetishmovchiligi muhim muammolardan biridir. Xususan, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 30% dan ortig‘ida o‘qituvchilar maxsus metodik qo’llanmalarsiz dars o‘tishga majbur bo‘layotgani aniqlangan (Maktabgacha ta’lim agentligi, 2023). Shuningdek, multimedia vositalarining yetishmasligi, texnologik vositalarning eskiligi va interaktiv dars shakllarining cheklanganligi til o‘rganishning sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Quyidagi 4-jadvalda O‘zbekistonning ayrim hududlarida chet tiliga oid dars resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi keltirilgan:

4-jadval. Hududlar kesimida chet tili dars resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi (2023-yil).

Hudud	MTT soni	Chet tili darsliklar bilan ta’minlanganlik (%)	Multimediya vositalari bilan ta’minlanganlik (%)
Toshkent shahri	643	88 %	72 %
Farg‘ona viloyati	511	62 %	41 %
Qoraqalpog‘iston	284	49 %	27 %
Buxoro viloyati	368	54 %	33 %

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, poytaxtda nisbatan yuqori darajadagi metodik ta’minot mavjud bo‘lsa-da, boshqa hududlarda bu ko‘rsatkich ancha past. Bu esa mamlakat miqyosida teng imkoniyatlar asosidagi til ta’limini yo‘lga qo‘yishda jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchidan, oilaviy muhit va ota-onaning til o‘rganishga munosabati ham muhim faktor hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar (ELLiE, 2010) shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar til o‘rganish jarayonida faol ishtirok etgan guruhlarda bolalarning o‘zlashtirish darajasi 23–35% ga yuqori bo‘lgan. O‘zbekistonda esa aksariyat ota-onalar faqat davlat tomonidan tashkil etilgan ta’lim jarayoniga tayangan holda chet tili ko‘nikmalarining rivojlanishini kutadilar. Bu esa bolada lingvistik muhitni mustahkamlash imkoniyatini kamaytiradi.

Yuqorida keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagি bolalarda chet tili ko‘nikmalarini samarali shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar uyg‘unligi ta’minlanishi kerak:

- metodik tayyor pedagoglar mavjudligi;
- zamonaviy o‘quv-uslubiy bazaning yaratilganligi;
- texnik vositalar va multimediya resurslar bilan jihozlangan muhit;
- bolaga mos o‘yinli va vizual yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar;
- oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatloving mavjudligi.

Mazkur shart-sharoitlar bajarilmaguncha, chet tilini o‘rganish jarayonida natijadorlikka erishish qiyin bo‘ladi. Ayniqsa, hududiy tengsizliklar, kadrlar taqchilligi va texnologik infratuzilmaning sustligi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qilmoqda. Shu sababli, keyingi bosqichlarda chet tilini o‘qitishda regional differensial yondashuvlarni ishlab chiqish, pedagogik muhitni yaxshilash va oilaviy sheriklikni rag‘batlantirish zaruriyatni ortib bormoqda.

Xulosa. O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida bolalarda chet tili ko‘nikmalarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, til o‘rganish jarayoni murakkab psixopedagogik tizim bo‘lib, uning muvaffaqiyati bir necha asosiy omillarning uyg‘unligiga bog‘liq: malakali va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagoglar, zamonaviy o‘quv-metodik resurslar, texnologik jihatdan ta’milangan muhit, bola yoshiga mos yondashuvlar va oilaviy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Xalqaro va milliy tajribalar solishtiruvli o‘rganilgan holda, immersiv yondashuv, o‘yinli va vizual metodikalar, teatr va qo‘sish elementlari bolalarning chet tiliga qiziqishini oshirishda eng samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan. Shu bilan birga, O‘zbekistonning ayrim hududlarida mavjud bo‘lgan pedagogik va texnik resurslar yetishmovchiligi til o‘rganishning teng imkoniyatlari prinsipi buzilishiga olib kelmoqda.

Maqolada ilgari surilgan takliflar quyidagicha:

- har bir hududda chet tili o‘qituvchilarini muntazam ravishda qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish;
- o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, multimediya vositalar bilan MTTlarni ta’minalash;
- oilaviy sheriklikni rag‘batlantirish maqsadida metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;
- bolalar til rivojlanishining individual dinamikasini kuzatib boruvchi diagnostika tizimini joriy etish.
- Shu orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tili ko‘nikmalarini samarali va uzluksiz rivojlantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Jo`raev A.X. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasalarida chet tili ko'nikmalarini rivojlantirishning psixopedagogik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Soliyeva M.M. (2022). "Erta yoshdagi bolalarda chet tili nutqini faollashtirish yo'llari". Ilm va taraqqiyot jurnali, №4, 56–62-betlar.
3. Vygotskiy L.S. (1983). Myshlenie i rech'. Moskva: Pedagogika.
4. Krashen S.D., Terrell T. (1983). The Natural Approach: Language Acquisition in the Classroom. San Francisco: Alemany Press.
5. Lenneberg E. (1967). Biological Foundations of Language. New York: Wiley.
6. UNESCO (2021). Early Language Learning in Multilingual Contexts: Global Report. Paris: UNESCO Publishing.
7. European Commission (2011). Early Language Learning in Europe: The ELLiE Project. Final Report. Brussels.
8. Saidova N.G. (2023). "O'yinli metodlarning maktabgacha yoshdagi bolalar chet tili lug'atini rivojlantirishdagi o'rni". Yosh olimlar forumi, №2, 88–92-betlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim agentligi (2023). Statistik ma'lumotlar to'plami. Toshkent.
10. Bruner J.S. (1975). The Ontogenesis of Speech Acts. Journal of Child Language, 2(1), 1–19.